

SHUHRATNING “OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA VATAN XOINI XARAKTERI TALQINI DILOVARXO’JA OBRAZI MISOLIDA

THE INTERPRETATION OF THE TRAITOR CHARACTER IN SHUHRAT’S NOVEL "GOLD DOES NOT RUST": THE CASE OF DILOVARKHOJA'S CHARACTER

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Qorjovova Mashira Ergash qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada taniqli adib Shuhratning “Oltin zanglamas” romani badiiy tuzilishi, undagi ijobiy va salbiy obrazlar ziddiyati atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda bosh qahramon Sodiqning metin e’tiqodiga qarama-qarshi o’laroq yaratilgan Dilovarxo’ja obrazi misolida Vatan xoinining badiiy talqini va psixologik qiyofasi ochib berilgan. Muallif qahramonning oila, ona, farzand va Vatan kabi muqaddas tushunchalarga bo’lgan tuban munosabatini, uning xudbinlik, qo’rqoqlik va sotqinlik kabi xususiyatlarini matniy dalillar (dialog va ichki kechinmalar) asosida yoritadi. Maqolada inson ma’naviyatsizligi va e’tiqodsizligining fojiaiy oqibatlarini adabiy tahlil obyekti qilib olingan.

Kalit soʻzlar: Shuhrat, “Oltin zanglamas”, Sodiq, Dilovarxo’ja, salbiy obraz, Vatan xoinligi, e’tiqod, xarakter talqini, tubanlik, qo’rqoqlik, badiiy mahorat.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the artistic structure of the famous Uzbek writer Shuhrat’s novel *"Gold Does Not Rust"* ("Oltin zanglamas"), focusing on the conflict between positive and negative characters. Through the character of Dilovarkhoja, who is masterfully crafted as an antithesis to the main protagonist Sadiq's unwavering faith, the artistic interpretation and psychological profile of a traitor to the Motherland are revealed. Drawing on textual evidence, including dialogues and internal monologues, the

author highlights the character's base attitude toward sacred values such as family, mother, child, and Motherland, as well as his inherent selfishness, cowardice, and betrayal. The study explores the tragic consequences of human immorality and a lack of core beliefs as the central focus of this literary analysis.

Keywords: Shuhrat, "Gold Does Not Rust", Sadiq, Dilorvarkhoja, negative character, treason, faith, character interpretation, baseness, cowardice, artistic skill.

“Adabiy asarlar turmushni jonli ko‘rsatib, odamlarning fikr va tuyg‘ulariga kuchli ta‘sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to‘la adabiy asarlar o‘quvchini uzoq vaqt bog‘lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt (mavhum) tushuntirmay, konkret (aniq) badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi.

Adabiy asarlar ila ma‘lum bir yo‘nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko‘rsatish mumkin. Davrni to‘lqinlantirgan ulug‘ idealar, vazifalar, millionlarning hayotida ko‘rilgan o‘zgarishlar san‘at asarlarida tajassumlanishi kerak.

Adabiyot xalqning jon-tani bo‘lgan bir ishdir, shuning uchun bizning bu sohadagi har bir muvaffaqiyatimizni, maydonga chiqqan har bir qimmatli asarni xalq o‘z g‘alabasi, deb biladi.”¹— deb yozadi Oybek. Darhaqiqat badiiy asar shu yo‘sinda yaratilmas ekan, chinakamiga xalq mulki bo‘la olmaydi. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani ham shunday asarlar sirasidandir

“Oltin zanglamas” romani insoniylik va tubanlik, fidoyilik va sotqinlik, mardlik va qo‘rqoqlik, samimiylilik va ikkiyuzlamachilik kabi ziddiyatlarni, davr siyosatini xalqning yashash tarzi dunyoqarashlarini nihoyatda go‘zal badiiy til asosida ifodalagan romandir. Bu xususida filologiya fanlari doktori professor Umarali Notmarov o‘zining “Oltin zanglamas” nomli maqolasida shunday yozadi:

¹ Oybek adabiy hikmatlaridan <https://oyina.uz/uz/teahouse/63>

“ . «Oltin zanglamas» romani bilan muallif o‘zbek adabiyotida ochilmagan qo‘riqqa qo‘l urdi, adabiyotimizga yangi mavzu-material olib kirdi, mamlakatimiz hayotida yuz bergan 30-yillar qatag‘oni qurbonlari hayotini qalamga oldi.

«Oltin zanglamas» qahramoni Sodiq taqdiri haqiqatan ham romanga arzigulik. Yozuvchi Sodiqni hayotning g‘oyat sermashaqqat va murakkab yo‘llaridan olib o‘tadi, uning boshiga ko‘p og‘ir savdolar tushadi. Lekin Sodiq shunchaki jafokash bir kimsa emas, u hammadan burun kurashchan shaxs. Qahramon eng mushkul vaziyatlarda ham taqdirga tan berib qo‘ya qolmaydi. Aksincha, vijdoniga gard yuqtirmaydi, ezgu ideallarga sodiq qoladi, shu ideal yo‘lida mardlarcha kurash olib boradi. Ona-yurt o‘g‘lonining e‘tiqodi – bu oltin, bu oltin etiqodning olijanoblighi, metinligi, sinovlardan g‘olibona o‘tib tantana qilishi, ya’ni oltinning zanglamasligi bosh qahramon xarakterining hayot falsafasini, romanning asosiy pafosini tashkil qiladi. ”²

Romanda muallif qahramonlarni shunday tanlaganki, unda xarakterlar xilma-xilligi asar kompozitsiyasini yanada qiziqarli tusga keltiradi. Qahramon holatiga uyg‘un ravishda tasvirlangan muhit voqealar ketma- ketligi ya’ni sujet chizig‘i bir tekis tortilgan.

Ushbu romanda yana shunday obraz borki, yozuvchi bu obraz orqali Sodiq xarakterining aks chizgilarini chizadi. Bu Dilovarxo‘jadir. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanidagi Dilovarxo‘ja obrazi — sadoqat va vatanparvarlikka qarshi o‘laroq, xiyonat, nafs va sotqinlik timsoli sifatida gavdalangan salbiy qahramondir. U sobiq bosmachi, dushmanning oltin tuvagiga uchgan sotqin va Bogunning qotili sifatida asarda asosiy salbiy harakatlarni amalga oshiradi.

Dilovarxo‘ja obrazining asosiy xususiyatlari:

Sotqinlik va xiyonat: Dilovarxo‘ja o‘z xalqiga va vataniga xiyonat qilgan, dushman manfaatlari uchun xizmat qilgan shaxs sifatida tasvirlanadi.

² Umarali Notmarov “ Oltin zanglamas” «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2013 yil 17-soni

Oltin parastlik: U dushmanning "oltin tuvagi"ga, ya'ni boylik va nafsga uchgan, ma'naviy qadriyatlarni oltin uchun sotgan sotqin.

Bosmachilik o'tmishi: Uning o'tmishi bosmachilik bilan bog'liq bo'lib, bu uning tabiatan buzg'unchi va qarshilik ko'rsatuvchi ekanligini ko'rsatadi.

Qotillik: Asardagi ijobiy qahramonlardan biri — Bogunning qotili sifatida Dilovarxo'ja qonxo'rlik va shafqatsizlikni namoyon etadi.

Dilovarxo'ja obrazi asarda yuksak insoniy fazilatlar — sadoqat, do'stlik va vatanparvarlikning teskarisi, ya'ni zanglagan, chirigan ma'naviyat timsoli sifatida ko'rsatilgan. Dilovarxo'ja obraziga biz asar davomida dastlab Sodiq qamalgan vaqtlarining ilk haftalarida u yotgan kameraga kelgan vaqtdagi voqealar bayoni aks ettirilgan "Yuzmayuz" bobida duch kelamiz. Asar mazmunida muallif Dilovarxo'jaga shunday ta'rif beradi:

*"... xumkalla, do'ng peshona, qoshi qoshdan ko'ra mo'ylovga o'xshash va yuzi ro'parasidan sochma o'q yegandek cho'tir"*³ Aksariyat hollarda salbiy obrazni tasvirlash uchun bundan ortiq ta'rif kerak bo'lmaydi.

Asar davomida Dilovarxo'ja obrazini yana "Kutilmagan uchrashuv", "Qochoqlar", "Elga qo'shilgan er bo'ladi", "Qotil yana qon istab qoldi", "Mash'um umrning so'nggi", "E'tiqodi butun kishi" kabi boblarida uchratamiz. Yozuvchi bu obrazni yuqorida sanab o'tilgan boblarda shunday mahorat bilan ta'riflaydiki insoniyatning bu qadar xudbin va bu qadar tuban bo'lishiga hayratlanadi kishi. Dilovarxo'janing na xatti- harakatida na gap so'zida bo'lib o'tgan ishlardan pushaymonlik o'z aybiga iqrorlikni kitobxon hech qayerda sezmaydi beixtiyor munofiq deb yuborganini sezmay qoladi. Xoin qahramonni Shuhratdan oldin ham, keyin ham hech kim bu kabi tasvirlagan emas. Vatanga xiyonat qiladigan qalbdagi, vujudagi vijdon bo'lmasligini Shuhrat shunday mukammal obraz sifatida o'quvchi e'tiboriga havola qiladi. Buni uddasidan chiqish uchun esa albatta Shuhrat bo'lish kerak.

Dilovarxo'ja — ona, farzand, oila, do'stlik, muqaddas tushunchalarni o'z nafsi yo'lida tap tortmasdan qurbon qilishga tayyor bo'lgan shaxs deyilsa xato bo'lmaydi. Uning

³ Shuhrat "Oltin zanglamas" «Zukko Kitobxon» Toshkent — 2022

Sodiq bilan bo'lgan bir suhbatida onasi haqida so'raganda bergan javobiga e'tibor qarataylik: - *Men o'zim ahmoqman, o'zim! It hidiab topmas yerda yurgan edim. Nima bo'ldi-yu, onamning kasalligini eshitib qoldim: onam meni bir ko'rishga zor emish. «Shuncha yil o'tib ketdi, kim ham taniydi. Bir borsam borib kelay» dedim. Yo'lga chiqdim. Kelsam, chindan Azroil onamni bir qo'ldan ushlab turibdi quvondi, yig'ladi, tuzalgandek bo'ldi. «Endi men ketay» desam, ertaga o'ladigan kishidek: «Senga ilhaq edim, o'z qo'ling bilan yerga qo'y!» - dedi. Nima deyishimni bilmay, labimni tishiab qoldim. Shu kuni bir yomon tush ko'rgan edim, tushimga qaraganda, ketishim shart edi. Noiloj qoldim. Onam o'lmay o'lsin, ertasiga meni ushlab oldilar. Mana, o'kinchimdan o'kirib, besh oydan beri shu yerdaman. Onamning so'ziga quloq solib nima qilar ekanman, o'lgandan keyin men ko'mdim nima-yu, boshqa ko'mdi nima! Ona ham xotin kishi-da, ahmoq bo'ladi. Ahmoqligi mening boshimni yeb o'tiribdi. Endi bularning panjasidan qutulib bo'bman! Qo'lga tushibmanki, onamni so'kaman. Ha, la'nati, intizor ekansan, ko'rding, bo'ldi-da, yo'ldan olib qolib nima qilasan!*

... - Nega bilmaydi! Shuncha yildan beri pista chaqib, yong'oq o'ynab yurganmidim. Vatangadoligimni bilardi! Endi nima bo'ldi!

Parchadan ko'rinib turibdiki Dilovarxo'ja uni tug'ib, oq yuvib oq tarab ulg'aytirgan onaga shunday munosabat bildirayotgan odam, qanday qilib ezgulikka xizmat qilishi mumkin. Muallif farzand insonning eng yaqin jonkuyari deb hisoblab Dilovarxo'jani shu tomondan mehrlimikin degan o'yda uning qarshisidagi suhbatdoshi orqali unga shunday savol javoblar bilan yuzlashgan dialogini bir ko'rib chiqsak :

«Onasidan uzoqlashib mehri sovib ketgan bo'lishi mumkin. Bola-chaqasi bo'lsa, ularni sevar, axir ota-ku» degan xayol bilan Sodiq gapni chalg'itmoqchi bo'ldi.

- Onangiz oldida bola-chaqangiz yo'qmidi?

- Bir qizcham bor edi. Hovuzga cho'kib o'lganini eshitgan edim.

- Fotihasiga bormaganmidingiz?

- Be! O'lsa o'libdi-da. Azamat o'g'il bolamidiki, uyimning chirog'i desang. Qiz bola - qush. Qanot chiqarguncha qo'lingda, keyin tuzoq qo'yib ushlab ololmaysan.

- Xotin-chi? Xotin kutib o'tirgan ekanmi?

- Yo'q. Qizdan keyin uy qilib ketgan ekan. Kolxozda mishig'ini oqizib yuribdi. Nomahram deb, mendan loytovoqdek yuzlarini bekitdilar.

Sodiq uni yana beva qolgan ekanmi, deb o'yladi.

...- U tomonlarda ham bola-chaqa qilgandirsiz, albatta.

- Ha, qilganman. Xotin emas, cho'chqa olganman. Yiliga ikki marta tug'adimi-ey! Hamma yoqni churvaqa bostirib yubordi. Uyga kirgani yurak bezillaydi: vaqir-vuqur. «Bas, bo'ldi!» desam, xudo bersa nima qilaman, deydi. La'natiga bag'rim tegib ketsa, tug'adi-ya! Mana endi nima bo'ldi!

...- Bolalaringizning chag'ir-chug'urini sog'ingandirsiz?

- Esimni tanibmanki, sog'inish nimaligini bilmayman. Ko'rsam, esimga tushadi-yu, ikki kun uzoqlashsam, yodimdan ko'tariladi.

...- Bolalar... bolalar... Bolalarga nima! Bir kunini ko'rib ketadi. Menga jabr bo'ldi, menga! Eh, attang, bu tomonlarga kelib nima qilardim-a!"⁴

Yuqoridagi suhbat Dilovarxo'janing asl basharasini yaqqol ochib tashlaydi. Ayol-qizlar zotiga nopisandlik bilan qaraydigan, farzand atalmish ulug' ne'matni "oyoq uchida ko'rsatadigan" lar mehrdan uzilgan mal'un deyish mumkin.

Garchi u zabardast barvasta odam bo'lsa ham uning bu gavdasiga yarashmagan qo'rqqoligi o'z boshiga ayovsiz kulfatlarni olib keldi. Dastlab bosmachi bo'lgan zamonida qo'rqqolik qilib ikki jilovdori bilan Tojikistonga qochadi va u yerda ham aynan shu his sababli jilovdorini hanjar bilan chavaqlab tashlaydi, Poezdada bo'lgan kutilmagan

⁴ Shuhrat "Oltin zanglamas" «Zukko Kitobxon» Toshkent – 2022

halokatli voqea sabab Bogun , Sodiq , Dilovarxo‘ja birgalikda qochadi va Bogunning bu orada oyog‘i jarohatlanadi. Sodiq yordam so‘rab biror odam topib kelgunigacha yana shu qo‘rqoqlik hisi girdobiga tushadi va Sodiq kelguniga qadar Bogunni bo‘g‘ib o‘ldiradi. Mana o‘sha jarayondagi Dilovarxo‘janing ichki kechinmalari:

Tishini tishiga bosdi, qo‘lini cho‘ntagida qattiqroq musht qildi. Inqillab yotgan Bogunga qarab g‘azab bilan baroq qoshini chimirib qo‘ydi. ...Agar shu la‘natining oyog‘i lat yemaganda, ancha yerga borib qolardik. Xudo ko‘rsatmasin, qidirib qolsalar bormi, ish rasvo! Shundoq qo‘ltig‘ining tagida yotibmiz-a! Ikki tug‘ishib, biri qolgandek joni achiydi Sodiqning. Tavba, manglayidian oy ko‘rdingmi! Mana hozir yana shuni deb, jonini tikib allaqayoqqa ketdi. Hali ketidan birorta shumoyoq ayg‘oqchini ergashtirib kelib ishning rasvosini chiqarmasa edi! Yo‘ldan tutilib qolishimizga ham, xavf ostida kechadan beri o‘tirishimizga ham mana shu inqillab yotgan Bogun sabab. Shu o‘ladi-yu, biz qutulamiz. O‘larmikin? O‘zi kichkinagina bo‘lsa ham, joni itnikidan qattiqqa o‘xshaydi. Bizning boshimizni yeb, o‘zi omon qolmasa edi! U tirik ekan, Sodiq undan ajralmaydi». Dilovarxo‘ja birdan ko‘zlarini chaqchaytirib, mo‘yiovga o‘xshagan qoshini kerdi. Ro‘paradan o‘q yeganday bujur yuzi yiltillab ketdi. «Joniga Azroil chang solishini kutib o‘tirmasdan... o‘zini uning bag‘riga itarib qo‘ya qolish kerak...»

Shuhrat asar davomida Dilovarxo‘jani tasvirlar ekan “Elga qo‘shilgan er boladi” bobida Bogunning o‘limidan keyin kirib borgan qishloqlaridagi kampirning uyidagi bo‘lgan sahnada kinoya qilib qo‘yadi:

Dilovarxo‘ja qorni to‘yishi bilan, Sodiqning oyog‘ini

bosib, endi yo‘lga chiqaylik, degan imoni qildi. Kampir

ham ularni tutmadi. Bir buxanka non bilan dokaga o‘ralgan

mushtumdek tuzlangan cho‘chqa yog‘ini ular qo‘liga berdi:

- Oziqlik ot horimaydi, olinglar, - dedi.

Kampir yonida turgan Dilovarxo‘ja nonni oldi-yu,

yog‘iga kelganda undan hazar qilgandek og‘rindi, yuzi
burishdi.⁵

Dilovarxo‘janing bundan keyingi qiladigan xatti-harakatlari avvalgilarini dog‘da qoldirdi. Ular frontda jangga kirganlarida uning ko‘ngliga kelgan fikr qanday bo‘lsa ham nemislar tomoniga o‘tib olish va o‘z jonini qutqarish. Kunlarning birida nemislar bilan bolgan shiddatli to‘qnashuvda nemislarga qaqshatkich zarba bergan Dilovarxo‘jalarning otryadi nemislarning qahrini keltiradi va ertasiga samalyotdan “varaqa”lar tushiradi. Otryad komandiri buyrugiga binoan “o‘qilmasin yirtib tashlang” deyilgan bu qog‘ozga Dilovarxo‘ja qiziqib qoladi va qo‘liga tushib qoladi va yashirib olib qo‘yadi. Maqsadi shu qog‘ozni ko‘rsatib nemis qo‘shiniga o‘tib olish :

Xilvatga o‘tib ko‘z yugurtdi. Ko‘z yugurtdi-yu, ko‘ngli yorishgandek bo‘ldi. Nemis raqib jangchilariga murojaat etib, Dilovarxo‘janing ko‘ngliga xush yoqadigan gaplarni yozar, o‘z xohishi bilan nemis tomoniga o‘tganlarga oltin tog‘ va‘da qilardi. Bu varaqa Dilovarxo‘janing yuragida ustini kul bosib yotgan o‘limtik umid uchqunini yallig‘latib yubordi. U qayta tug‘ilgandek bo‘ldi. Varaqadagi gaplarga yuz foiz ishondi. Agar o‘zinikilarning qurbi yetganda shuncha yergacha chekinib kelarmidi! Demak sho‘ro urushda yutqizdi, bugun bo‘Imasa ertaga yutqizadi. Shunday ekan, esi borida etagini yopib qolishi kerak. Hammadan ham varaqaning «urush tugashi bilan har kim o‘z yurtiga jo‘natiladi» degan yeri Dilovarxo‘jaga yoqib tushdi. Varaqada qurolini ham o‘zi bilan olib o‘tish alohida ta’kidlangan edi. Shunisiga u bir oz hayron qoldi. «Qurol unga nimaga kerak bo‘ldi, shu qurol bilan yana urushga solmaydimi?»

O‘zi qancha nayranglar qilgan bu inson dushman qo‘shinlarining bu “o‘yin”iga aqli ojiz qoladi. Bu ishga yolgiz o‘zi bosh qo‘shishga , ajabki , qahramonimizning yana yuragi dov bermaydi va o‘ziga Sodiqni sherik qilishga ahd qilib uning oldiga boradi. Dilovarxo‘janing muddaosini eshitgan sodiq undan ijirg‘angandek bo‘lib gap boshlaganda

⁵ Shuhrat “Oltin zanglamas” «Zukko Kitobxon» Toshkent – 2022

Sodiqqa Vatan Vatan deysan Vatan seni shu ko‘yga soldi qabilida aytgan quyidagi gaplaridan kitobxon naqadar jirkanib ketadi:

Dilovarxo‘ja ochig‘iga ko‘chdi: - Bo‘lsa bordir. Lekin bunisini, yutqizdik, chuv tushdik. Bordi-yu, chuv ham tushmadik, sho‘roning qaysi qilgan yaxshiliklari uchun loy kechishim, egar quchoqlab o‘tirib ot minishni orzu qilishim kerak? Atala ichirib tergov qilgani, bundan keyin Vatanning betini ko‘rmaysan deb, o‘n yil bergani uchunmi? Yo‘q, Sodiqjon, shularni eslaganda kishiga juda malol keladi.

Bu vaziyatda gap butun boshli mamlakat taqdiri haqida borayotgan damda yolg‘iz o‘zini panada saqlash dardi bilan andarmon bo‘layotganlar qiyofasi shu dialogda ochiq ifodalanadi.

Odam zoti qachon asl o‘zi bo‘ladi degan savolga yolg‘iz o‘zi bilan qolganda deya javob bergan bo‘lar edim. Har qachonki inson yolg‘iz qolganida o‘zi bilan gaplashadi aslida kim ekanligini o‘sha chog‘da anglaydi. Barcha xatti-harakatlarini qanday maqsad uchun qilganini tan oladi. O‘shanday kezlarda qalb Ollohga ochiladi, haqiqatlar girdobiga tushadi. Ko‘ngil bo‘shaydi ko‘zga yosh keladi, yaratgan bilan ilohiy bog‘liqlik paydo bo‘ladi... faqat o‘sha qalbdagi imon va vijddondan zarracha nishon qolgan bo‘lsa aks holda bu bogliqlikda ilohiylik yoqoladi rostlik o‘rini o‘zini oqlash egallaydi, xuddi qahramonimiz Dilovarxo‘ja kabi.

U «mushkulimni o‘zi oson qilsin!» dedi-yu, o‘ng yonboshini bosib yotdi.- Ertalab barvaqt turib, tahorat oldi. Bir chetga o‘tib namoz o‘qidi. Duo qildi, nola qildi. «Ey xudoyim, bir mehribonlik qilsang-chi! Meni qiynabo tirmasdan shuncha uchgan o‘qdan birini, shuncha baloufurgan bombaning achchiq danakdek bir parchasini uning jon yeriga qadasang nima qiladi. Men-ku sening mo‘minqobil bandangman. Esimni tanibmanki, izmingdaman. Farzingni farz, sunnatingni sunnat tutdim. Yoshligimdayoq «bu sening amring» deb qishloq imomining og‘zidan chiqishi bilan ro‘za tutmagan, namoz o‘qimagan, fitr ro‘za bermaganning po‘stagini qoqdim, qo‘li egrilarning ta‘zirini berdim. Keyinchalik o‘zim shu yo‘lga kirib ketgan bo‘lsam

ham, seni unutganim yo‘q, masjidingga bo‘yra, joynamoz olib berib turdim, zakotni kanda qilmadim. O‘ylamaki, barcha topganini yolg‘iz o‘zi bosib yedi deb. Yo‘q. Nimaiki o‘lja qilgan («o‘g‘irlagan» deyishga tili bormadi) bo‘lsam imomga ham, qoziga ham, yuzboshiga, aminga ham cho‘tal berib turganman. Ular hammasidan xabardor edi. Bir safar bir dehqonning qo‘shga qo‘shib turgan ho‘kizini o‘marganimda («o‘g‘irlaganimda» deyishga yana tili bormadi) qozi pochchamning o‘zlari «badbaxt, qo‘niqp’shniga qilasanmi! Narigi qishioqda, sal nariroqda ish tutsang, oyog‘ingga yel tushadimi!» deb qutqarib yuborganlar. Bu yaxshiliklarini, albatta, quruq qo‘yganim yo‘q, bir ovchining ikkita tulkisini (o‘g‘irlab, yo‘q, so‘rab)

olib berganman. Qishloq oqsoqoli-ku o‘zimning otaxonim edilar. Bir pochapo‘stin evaziga mardikor ro‘yxatidan o‘chirib berganlar. Keyinchalik berib turgan «sovg‘a-salomlarim» bunga kirmaydi. Omil qori kenja xotini ayachamni halala qilib, mardikorga qo‘shganda, mardikor «endi mening qo‘yadigan xotinim yo‘q» deb turib olganda, uning boshiga it kunini solganman. Ha, rostdan ham shularning hammasini «bismillo» demasdan boshlagan emasman, har vaqt o‘zingni yodlab turganman. Demak hammasidan o‘zing voqifsan, ma‘zur tutsang bo‘ladi.

Inqilob bo‘lishi bilan «Islom tug‘i ostiga o‘t!» deding, o‘tdim. «Yigit to‘pla!» deding, to‘pladim. «Kofirni qir!» deding, qirdim. Ha, shuni ham senga eslatib qo‘yayki,

bizning safimizda kadet o‘rislar ham bor edi, ular kofir bo‘lmasa kerak, chunki hazrat mufti ular bilan bir dasturxondan non ushatib, bir qozondan osh yerdilar, hatto sallalarini olib qo‘ymasdan hushchaqchaqlashib o‘tirar edilar. Necha-necha qishioqqa o‘t qo‘yib, necha odamni tig‘ga torttirgan bo‘lsam, sening noming bilan, bayrog‘ing ostida qildim. Axir o‘zing «mening ixtiyorimsiz bandamning badanidan bir dona mo‘yi tushmaydi» degansan. Demak shularning hammasiga o‘zingning ijozating bo‘lgan, o‘zing buyurib turgansanu, men sodiq quing bajo keltirganman.

O‘sha vaqtlarda, aziz quing bo‘lib yurgan vaqtlarimda, ba‘zan maishat bilan bo‘lib, besh vaqt namozingni kanda yoki qazo qilgan bo‘lsam ayb mendamas, men bilan «bu

shar'iydir» deb may ichishgan ulamongda. U kishining betidan o'tib, o'zboshimchalik qilgani botinmadim. U hazrat bo'lsa, ko'p vaqt maishatdan kechib, namozga turmas edilar... Bayrog'ingning sopi sinib, o'zi qizil askar oyog'iga paytava bo'lib ketgandan keyin ko'rgan it kunlarim o'zingga ayon - qoqmagan eshigim, kirmagan teshigim, daydi itdek sanqimagan ko'cham qolmadi. Qishda och qolgan qashqir ham mendan a'lo edi. Shunda ham seni esdan chiqarganim yo'q, oyning o'n besh kuni qorong'i bo'lsa, o'n besh kuni yorug' deb, «bu - biror qilgan gunohimning jazosidir» deb sabr qildim. Bu yog'i yana o'zingga ma'lum: qo'lga

tushish, tergov, lager... Shunday qilib hamma sinovingdan «g'ing» demay o'tib kelyapman.⁶

Dilovarxo'janing o'z nutqidan ko'rinib turibdiki uning atrofidagi kimsalar ham o'zi kabi “xudogo'y”, bu jummalarni o'qiguvchi kitobxon qah-qah otib kulishi tabiiy.

Xalqimizda “Yomonning yomonligi o'z boshini yeydi” degan naqli qanchalik haqiqatligi Dilovarxo'janing ayanchli o'limi yaqqol misol bo'ladi.

Uning rejasicha, hamma o'zi bilan ovora. Bugun otishma bo'Imaganidan xursand bo'lib, yerto'lalarda dam olyapti. Albatta, dushman tomonni kuzatib o'tirgan navbatchi kuzatuvchilar bor. Ularning asosiy vazifasi dushman tomonga ko'z-quloq bo'lib turish. Shunday bo'lsa ham Dilovarxo'ja ularni imkon boricha uzoqroqdan chetlab o'tishga qaror qildi. Buning uchun birdan-bir yo'l to'g'ri nemis tomonga emaklamasdan, soyga o'tish. U yerda nima ko'p - past-balandlik. U yerning butalari ham yotgan kishihi ko'mib ketguday o'siq. Ana o'shalar joniga ora kirishi mumkin. U o'zini bosib, postga chiqib ketayotgan askardek miltig'ini osib, ancha yergacha bordi. Bir-ikki uchragan odamga turli bahona ko'rsatdi. U hammadan ham Sodiqdan qo'rqardi. Faqat Sodiqqina uning ichini bilishi mumkinday ko'rinardi...

⁶ Shuhrat “Oltin zanglamas” «Zukko Kitobxon» Toshkent - 2022

Bilasizmi qing'ir ishni qilayotgan kim bo'lishidan qat'i nazar ichida albatta katta qo'rquv bilan yashaydi.

... - «Tur, xoin! - dedi miltig'ini o'qtalib, xo'ja turish o'rniga yotgan joyida ingradi. Shundan Sodiq bildiki, u og'ir yaralangan. Tepasiga kelib, oyog'i bilan uni orqasiga ag'dardi. Ko'kragi, qorni qop-qora qonga belangan edi. Tili so'zga kelmadi. Changalida o'sha mudhish varaqa. Sodiqning jinday bo'lsin unga rahmi kelmadi, aksincha, nafratidan dir-dir titrar edi. Uning joni uzilishini kutib o'tirmay, shapkasidagi «Yulduz»ni yulqib oldi. Uning miltig'ini ham bu yelkasiga osib, besh qadamcha yurishi bilan Bogunning tamaki to'rvachasi esiga tushdi. «Sotqinning cho'ntagida qolishi uvol» degandek, qaytib borib, yonidan uni ham oldi. Bu vaqtda Dilovarxo'ja to'ng'iz qo'pgan edi. Uning mo'ylovga o'xshagan baroq qoshlari bo'z ko'ylakka tushgan qora tukli sherst yamoqday badbashara ko'rinardi⁷

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki Vatanga xoinlik qilgan insondan hech qachon do'st chiqqan emas. Unaqalar o'zidan o'zga hech kimni o'ylay olmaydi. Har qanday qalbda xoinlik ildiz otdimi, demak, u vujudida ezgulik, insoniylik, shafqat fidoyilikka o'rin qolmaydi. Bundaylarga yaxshini hamroh bo'lsa ham befoyda. Shunchaki yaxshining ham nomiga chang soladi bular kabi insonlar. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ta'biri bilan aytganda “yomon kunlar bir kun yaxshi bo'lar-u yomon odam yaxshi bo'lmas hech qachon” jumlasini fikrimizning haqiqatidir. Yurt taqdiri xalq manfaati uchun jonini tikkuvchi, Vatanga dushmanni o'zining ashaddiy dushmanidek ko'ruvchi fidoyi insonlarimiz bor ekan Vatanimiz obod xalqimiz tinch osoyishta hayot kechiradilar. Xoinlar bu dunyoda ham u dunyoda ham yuzlari qora bo'lmogi haqida Olloh taolo muqaddas kitobimiz Qur'oni sharifda ham qat'i belgilab qo'ymishlar. Vatanga bo'lgan muhabbatimiz yurt otasiga bo'lgan sadoqatimiz aslo so'nmasin.

⁷ Shuhrat “Oltin zanglamas” «Zukko Kitobxon» Toshkent - 2022

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek adabiy hikmatlaridan <https://oyina.uz/uz/teahause/63>
2. Umarali Notmarov “Oltin zanglamas” «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2013 yil 17-soni
3. Shuhrat “Oltin zanglamas” «Zukko Kitobxon» Toshkent - 2022